

KREDITLASH JARAYONIDA XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI OMILINI BOSHQA MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Juraeva Sevara Zakirovna

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
katta o'qituvchisi*

Moliyaviy qarorlarning insonlar xulq-atvori bilan bog'liqligini o'rganuvchi iqtisodiy xulq-atvor fani hozirda takomillashib bormoqda. Ta'kidlash joizki, XX asrda Gabriel Tarde, Jorj Katon, Laslo Garai asarlari tufayli iqtisodiy psixologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sababchi bo'lindi. Ular tomonidan kutilayotgan foydalilik nazariyasi va vaqtlararo foydalilik modellari e'tirof etildi, ular asosida noaniqlik va vaqtli tanlov sharoitida qarorlar qabul qilish jarayoni haqidagi farazlarni ilgari surish imkoniyati paydo bo'ldi.

Iqtisodiy sotsiologiya sohasidagi xulq-atvorning asoschisi M. Veber deb e'tirof etiladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotchilar insonlarni irratsional bo'lgan holatlaridagi iqtisodiy yoki psixologik ta'sirlanishini o'rganishadi. Uning fikricha, insonlar o'zlariga berilgan muqobillar orasidagina tanlab olishadi va bu xususiyatdan firmalar ko'proq daromad olishda foydalanish mumkindir.

Xavfli vaziyatda qarorlar qanday qabul qilinishi haqidagi rasmiy nazariya ya'ni "Kutilayotgan foydalilik nazariya"si 1944 yilda eng buyuk matematiklardan Jon von Neumann va iqtisodchi Oskar Morgensternning kitoblarida nashr etilgan. U Albert Eynshteynning zamondoshi va Prinстон universiteti qoshidagi Malaka oshirish institutida ishlagan va Ikkinchi jahon urushi davomida o'zini amaliy muammolarni hal qilishga bag'ishlagan. Natijada "O'yinlar nazariyasi va iqtisodiy xulq-atvor" nomli 600 betlik asar yozilgan va unda kutilayotgan foydalilik nazariyasi keltirib o'tilgan.

Jahon miqyosida xulq-atvor iqtisodiyotini joriy etish keng qo'llanilib borar ekan, rivojlangan davlatlarda ko'pgina kompaniyalar va tashkilotlarda hozirda insonlar xulq-atvorini foydani maksimallashtirishga ta'sirini tahlil qiluvchi mustaqil bo'linmalar va "Chief Behavioral Officer" shtati, ya'ni bosh xulq-atvor iqtisodchisi lavozimi joriy etilgan. Bu yo'nalishni kengaytirish va takomillashtirishning asosiy faktorlari quyidagilardir:

1. Top menejment jamoasini shakllantirish. Bunda jamoa qanchalik darajada o'quv malaka oshirishni va lozim projeklarni chuqurroq ishlab chiqishga o'z diqqat e'tiborini qaratadi.

2. Bosqichma bosqish boshlash. Projeklarni amalga oshirishda banklarda xulq-atvor iqtisodiyoti omiliga tayanish va yuqori ta'sirga kam xarajatlar qilgan holda erishish ko'zda tutilgan.

3. Har kim ham ekspert emasligini tushunish. Xulq-atvor iqtisodiyotini tashkilotda joriy etilar ekan har kim ham mukammal bo'lishi shartmas. Sohalarga qarab har kim projeklarni har xil muhokama qiladi.

4. Aniq bir tuzilmani yaratish. Xulq-atvor iqtisodiyotini banklarda joriy etishda turli jamoalarga turlicha projeklarni berish tavsiya etiladi.

5. Iloji boricha muhim jamoalarni jalb etish. Biznesda muhim odamlarni va jamoalarni aniqlab olish kerak.

Buyuk Britaniyadagi “Lloyds Banking Group” kompaniyasi chakana xizmatlarga ixtisoslashgan bo‘lib, ushbu kompaniya London Business School hamkorligida xulq-atvor iqtisodiyoti va qarorlar qabul qilish jarayonini o‘rganish maqsadida hamkorlik tuzgan. Ma‘lumotlar bazasi va mijozlar diqqat e‘tiborini tortish bilan birgalikda xulq-atvor iqtisodiyoti ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishda asosiy elementdir. Shuningdek, xulq-atvor iqtisodiyoti ilmiy laboratoriyasi tashkil etilgan bo‘lib, u yerda ma‘lumotlarda yuksak darajada mijozlarni o‘rganishda foydalanish va insonlarga qaratilgan dizaynni rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Jalb qilingan talabalar Lyodsda diqqat e‘tiborini mijozlarni aqliy qarashlarini o‘rganish va raqamlashtirishni takomillashtirish hamda tanlovga qaror qabul qilishning ta‘sirini aniqlashtirishga qaratishmoqda.

Jismoniy shaxslarga juda keng turdagi kreditlarni taqdim qiluvchi Britaniya davlatida kreditlar hisobidan sotib olinuvchi ko‘chmas mulklar yoki tovarlar sotib olinishiga bugungi kunda chegaralar qo‘yilmaydi. Ipoteka kreditlari ajratishda asosiy shartlardan biri rezident shaxs bo‘lish hisoblanib, yuqori kredit so‘mmalarida oylik ish haqi inobatga olinadi. Shuningdek, Angliya banklari kredit oluvchi jismoniy shaxslarning daromadlari, yaxshi kredit tarixi, doimiy ish joyiga ega bo‘lishiga ham e‘tibor qaratishadi. Bu jarayonlarni tashkil etish orqali mamlakatda resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, muommoli kreditlarni oldini olish va moliya-bank sohasida faoliyat yurituvchilar uchun likvidlikni ta‘minlashga erishilmoqda.

Moliyaviy qarorlarni to‘g‘ri qabul qilinishini ta‘minlash maqsadida xulq-atvor nazariyasi 2010 yilda Buyuk Britaniyaning sobiq ministri David Cameron tomonidan ham kengaytirilgan. U xukumat tarkibida alohida xulq-atvorni o‘rganuvchi yo‘nalishda bo‘limni tashkil qilib, soliq to‘lovlarini samarali yig‘ish uchun faoliyat olib borgan. R. Thaler u tomonidan norasmiy maslahatchi bo‘lishga taklif qilingan edi. Cameronning so‘zlariga ko‘ra, xulq-atvorga asoslangan "turtki" siyosati o‘zida ajoyib mexanizmni tashkil etadi, ya‘ni uning yordamida fuqarolarni o‘zlari va jamiyat uchun eng yaxshisini tanlashga ishontirish mumkin.[1]

Bundan tashqari, xulq-atvor iqtisodiyoti mavzusi mashhur bo‘lib borar ekan buni siyosiy jarayonlarni rivojlantirishini tushunish uchun bir qancha ishlar belgilandi. 2010 yilda asos solingan “Xulq-atvor qarashlari jamoasi” turtki nazariyasini davlat siyosati va xizmatlarini rivojlantirishga xarakat qildi. Yevropa Komissiyasi ham bu borada bir qator ishlarni amalga oshirib asosiy moliyaviy nazoratni rivojlantirish uchun xulq-atvorni ta‘sirini o‘rganishga doir tadqiqotlar olib borildi. Milliy moliya tashkilotlari xulq-atvorni ta‘sirini o‘rganish uchun jamoalar tashkil qila boshladi. Bular jumlasiga “UK Financial Conduct Authority”, “the Netherlands Authority for the Financial Markets”, “the US Consumer Financial Protection Bureau” kabilarni keltirish mumkin[2].

Germaniyada kredit oluvchi jismoniy shaxslarning bankda hisob raqamlari bo‘lishi kerak, chunki bank yoki nobank tashkilotdan berilgan kreditlarning

asosiy qarz va unga hisoblangan foizlari shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda hisob raqamdan yechib olinadi. Kredit olishda jismoniy shaxslar bankka tashrif buyurishi yoki online platformalar orqali rasmiylashtirishi mumkin. Ushbu jarayonda talab qilinadigan muhim tartiblardan biri bu shu mamlakatning rezedenti bo'lishi va doimiy yashash uchun ro'yxatdan o'tgan manzili hisoblanadi. Shuningdek, kredit ajratishda ularning oylik daromadlari va oy davomida qiladigan xarajatlari muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi. Bankka murojaat qilgan mijozning bankdan oladigan krediti oylik daromadining 60%dan yuqori summani tashkil qiladigan bo'lsa bu ijobiy qaror qabul qilishga asos bo'ladi.

Yana bir «Kreditech» nomli nemis kompaniyasi bugungi kunda mijozlarning ijtimoiy skoringiga asoslangan holda 30 kungacha bo'lgan muddatda kredit olish imkoniyatini beradi. Bu kompaniya mikrokredit tashkiloti hisoblanib, u ham ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlarga tayanadi. Ushbu jarayonda 8000 dan ortiq faktorlarga tayanishadi. Asosiy e'tiborni ular insonlarning internet magazinlardagi xaridlariga va qiziqishlariga qaratishadi. Ular tajribasidan ko'rish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlarga asosan qisqa muddatli kreditlarni tezkor ajratish va keng ko'lamda mijozlarni jalb qilishga erishish mumkin.

Fikrimizcha, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarining tajribasidan ko'rinadiki, xulq-atvor iqtisodiyoti va qarorlar qabul qilish jarayonini chuqurroq o'rganish va amaliyotga joriy etish shubhasiz katta iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi mumkin. Ayniqsa bu sohaga hukumat tomonidan katta e'tibor qaratilayotganligi bejizga emas. Bu albatta mamlakat miqyosida iqtisodiy resurslarni to'g'ri taqsimlash, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga asos bo'ladi.

Rossiya davlati tajribasida "Сбербанк", "Альфа-банк", «Тинькофф Банк», "ОТП Банк", "Хоум Кредит Банк", "ВТБ" larda ijtimoiy kredit skoringidan hozirda faol foydalanilmoqda. 2013 yilda R.I. Kapeliushnikov tomonidan Rossiya ilmiy-tekshirish universiteti "Iqtisodiyot Oliy maktabi"da xulq-atvor iqtisodiyotiga doir izlanishlarni amalga oshirilgan.

Avstraliyaning ANZ banki qarz oluvchilarga ipoteka kreditlarini mijozlarning xulq-atvoridan kelib chiqib kredit limitlari, foiz stavkalari va kredit muddatlarini belgilashadi. Dunyo bo'ylab ko'pgina mamlakatlarda xulq - atvor skoringi ko'plab jadal qarz beruvchi institutlarda ishlatiladi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor e-tijorat ma'lumotlari, ijtimoiy arenda ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari, veb analitiklar, telekommunikatsiya va mobil telefonlar kabilarda foydalaniladi.

Elektron magazinlar, chatlar va ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari dunyo bo'ylab Prosper, Lenddo, Entrepreneurial Financial Lab, Zopa, lending club, Financiera Confianza kabi qarz beruvchi kompaniyalar va "peer-to-peer" (P2P) ijtimoiy qarz berish platformalari tomonidan keng qo'llanib kelinmoqda. Equifax va Experian kabi yirik kredit platformalar mavjud ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda ishlashadi. Ularda xulq - atvor psixologik va insonlarning xarakterlaridan kelib chiqib baholanadi [3]

Psixologik testlar kimningdir bilimini, qobiliyatini, hayotdagi vaziyatlarga munosabatini tahlil qilishda foydalaniladigan savollardan iborat. Entrepreneurial Finance Lab (EFL) esa turli optimizm, o'ziga ishonch, avtonomiya, ma'suliyatlilik kabi xarakterlardan foydalanmoqda.[4]

Psixologik usuldan foydalangan holda, EFL 1,993 ta kredit arizalarini ko'rib chiqib bunda ularning 9 % boshqa joylarda moliyalashtirilishi rad etilgan bo'lib, Perudagi eng katta 5 chi bank mijozlarni yuqori aniqlikda aniqlagan deb topildi. [5] Shuningdek, Visual DNA kognitiv xilma xillik va turg'un his tuyg'u xarakterlarini kredit riskni bog'lovchi sifatida foydalanilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy skoring yoki boshqacha qilib aytganda insonlarning psixologiyasini, xarakterini, xulq-atvorini o'rganish orqali kredit ajratish ko'pgina davlatlar tajribasidan samarali usul ekanligi yaqqol ko'rinmoqda. Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlari hukumati tomonidan bu sohaga katta urg'u berilishi bejizga emas. Davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi va tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratilishi bu sohani takomillashtirgan holda samarali moliyaviy qarorlar qabul qilgan holda, iqtisodiy barqarorlikka erishish garovidir. Shuningdek, bu tizim insonlarni yaxshi xulq-atvoriga undaydi ya'ni jamiyat uchun foydali ta'lim-tarbiya vositasi hamdir. Shu bilan birga, ijtimoiy kredit skoringidan keng foydalanish banklar kredit portfeli va rentabelligini oshirishni ta'minlaydi. Respublikamizda ham Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya davlatlari tajribasidan andoza olgan holda xulq-atvor omillariga asoslangan kredit ajratish tizimini takomillashtirish kelajakda mamlakat miqyosida pul-kredit tizimi barqarorligini ta'minlashga asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://publications.europa.eu/en/publication-detail//publication/b86d7f2d-9e77-11e7-b92d-01aa75ed71a1/language-en/format-PDF/source-search>.
2. Masyutin A.A.(2015) *Credit scoring based on social network data. Business informatics.* (3(33)).
3. Klinger, B., Khwaja, A., & LaMonte, J. (2013). *Improving credit risk analysis with psychometrics in Peru*
4. McEvoy, M. J., & Chakraborty, T. (2014). *Enabling financial inclusion through alternative data*
5. Arráiz, I., Bruhn, M., & Stucchi, R. (2017). *Psychometrics as a Tool to Improve Credit Information*, S67

O'ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOT KLASTERLARINING TASHKIL ETILISHI

Karimova Nilufar Sadridin qizi
TDIU tayanch doktoranti

Meva-sabzavotchilik klasterlarining asosiy va umumiy maqsadi uning bajaradigan vazifasi orqali belgilanadi. Uning vazifasida esa, meva-sabzavotchilik klasterining vaziyatini batafsil ifodalaydi hamda har bir tashkiliy bosqichlarda o'z